



BELGI ANGLATUVCHI TERMINLARNING SOHAVIY QO'LLANILISHI

Hamroyeva Muhayyo Shuhrat qizi

Qarshi davlat universiteti

Lingvistika : o'zbek tili yo'nalishi

2-kurs magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7821121>

ARTICLE INFO

Received: 03rd April 2023

Accepted: 11th April 2023

Online: 12th April 2023

KEY WORDS

Integratsiya, termin, belgi, kimyo, yasalish, lison, fan, tizim.

ABSTRACT

Ushbu maqolada belgi bildiruvchi terminlarning turli xil sohalarida lisoniy imkoniyatlari borasida fikrlar bildirib o'tiladi.

Til millatning beqiyos boyligi va bebaho mulkidir. Shu boisdan ona tilini sevis, uni billurdek musaffo saqlash, kelajak istiqbolini kamol toptirish muhim vazifalardan sanaladi. Bu esa jonajon Vatanimizga bo'lgan muhabbatning yetuk namunasidir. Ona tili, avvalo, millat tafakkurini shakllantiradi, rivojlantiradi, takomillashtirib boradi va namoyon ettiradi. Buning uchun til sohasining boshqa bir qancha fanlar bilan uyg'unlashtirib o'rganish lozim. Bu esa integratsiya jarayonini yuzaga keltiradi. Integratsiya jarayonini Fariruddin Attorning quyidagi fikrlariga hamohangligini ko'rishimiz mumkin: "Bu ro'yi zaminda mayda narsaning o'zi yo'q, hamma narsa bir-biriga bog'liq va bir-birini to'ldiradi". Xususan, terminologiya va tilshunoslik sohalarining o'zaro yaqinligi tilning imkoniyatlari va ichki resurslari bilan o'lchanadi. Bunda so'z yasalishi jarayoni yuzaga kelib, fan sohasida terminlashtirish va umumlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Muayyan adabiy tilning lug'at tarkibi so'zni umumxalq tilidan maxsuslashtirish yo'li bilan terminologik leksikani paydo qiladi. Bu esa muayyan fan sohasida lingvistik termin sifatida e'tirof etiladi. Bunday terminlar diaxron tatbiq etilganda ham salmoqli o'ringa ega bo'lib, til leksika uchun boyituvchi manba bo'lib xizmat qiladi. Xususan, turkiy tilni tarixiylik jihatidan o'sha davrda iste'molda bo'lgan terminlariga e'tibor bersak, turli xil soha terminologiyasini ko'rish mumkin. Bunda diniy ustunlik ko'zga tashlanadi. So'g'd, sanskrit, xitoy tillaridan tarixiylik jihatidan terminlar kirib kelgan va lug'at boyligimiz tarkibiga qo'shilgan. Masalan, bargu "o'lja", tamga "tug'ro", korug "ayg'oqchi", qislag(q) "qo'shinning qishki qarorgohi" singari asl turkcha, cherik "qo'shin, armiya", sart "tojir, savdogar" kabi sanskritcha, xatun/ qatun "malika", kent "qishloq; shahar" singari sug'dcha, qag'an "hukmdor", xan "hokim", tegin "xonzoda, shahzoda", yabg'u" xoqondan keyingi oliy lavozim egasi" kabi atamalar keng ishlatilganligini tarixiy manbalar ko'rsatadi.

Terminologiya hozirgi paytda dunyo tilshunosligining diqqat markazida turgan tushunchalardan hisoblanadi. Terminologiya zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning aktual yo'nalishlaridan biridir. Bugungi davrda terminologiya masalasining o'sib borishi, bir tomondan, ilm-fanning dinamik rivojlanishi tufayli yangi tushunchalarning ko'payib borishi



sababli deb qaralsa, ikkinchi tomondan, terminlarning shakllanish jarayoni, rivojlanishi va funksiyasi kabi masalalarning yetarli darajada o'rganilmaganligi bilan bog'liq hodisa deb izohlanadi. Belgi bildiruvchi so'zlarning terminologik yasalihi har qanday fan sohasida belgi bildiruvchi so'zlar imkoniyatining boyligi bilan e'tirof etiladi. Masalan, kimyo sohasida belgi bildiruvchi terminlar :

- Zaharli, misli, sharikli, kimyoviy, kislotali, yaroqli, tuzli, xavfli, nokristalli, gazsimon kabi; Biologiya fanida uchrovchi belgi bildiruvchi terminlar:
- Serildiz, sersut, sergo'sht, serchiqit, seryomg'ir, qisqichbasimon, kitsimon, o'rgimchaksimon, maymunsimon, mushuksimon, itsimon, bug'usimon, turlararo kabi; Anatomiya fanida uchrovchi belgi bildiruvchi terminlar:
- Bargsimon, qalqonsimon, ipsimon, kipriksimon kabi; Ilmiy va texnikaviy fanlararo belgi bildiruvchi terminlar:
- Xalqaro, qit'alararo, millatlararo, qobirg'alararo, nochiziqli kabi; Iqtisodiy va siyosiy jihatdan belgi bildiruvchi terminlar:
- Nomaxfiy, noaniq, noqonuniy, noma'lum, norasmiy, nostandart, nokontakt, notijorat, nodavlat, kamdaromad, kamxarj, kamxarajat kabi.

Yana bir mahsuldor yasalihi usullaridan biri kompozitsion sifat – terminlarni yasash usulidir. Turli turkumdagi so'z shakllar qo'shma gap qoliplari uchun asos bo'la oladi: tinchliksevar, sovuqqon, tezoqar, erksevar, xomsemiz, ishyoqmas, ertapishar, kaltafahm kabi. Bunday terminlarning shakllanishi va tilda qo'llanilishi zarur masaladir. Belgi bildiruvchi so'zlarning kontekstual ishlatilishini quyidagi birikmalar tarkibida ishlatilganini aytish mumkin: "kimyoviy element", "tuzli birikmalar", "zaharli moddalar", "kislotali gazlar" – kimyo tilida uchrovchi belgi ifodalovchi affiksatsion yasalihi tizmi; "qisqichbaqasimonlar oilasi", "serildiz o't", "o'rgimchaksimon hayvon", "bug'usimon guruh" – biologiya fanida ishlatiladigan terminlar; "qalqonsimon bez", "ipsimon a'zo", "kipriksimon tana" – anatomiya fanida ishlatiladigan terminlar; "xalqaro tashkilotlar", "millatlararo bag'rikenglik", "qit'alararo mamlakatlar" – ijtimoiy sohalarida ishlatiladigan terminlar; "kamdaromad oila", "kamxarajat yumush", "noaniq ish", "nomaxfiy tashkilot", "nostandart tizim", "noma'lum faoliyat" – iqtisodiy sohada ishlatiladigan terminlar. Ilmiy terminologiyada unumli va faol sanaluvchi kam – prefiksoidi ishtirok etgan model boshlang'ich asosdan anglashilgan miqdorning ozligi ma'nosini izohlovchi sifat-terminlarni yasaydi: *kamqon, kamsut, kamsuv, kamhosil, kamdaromad, kamxarj, kamxarajat, kamquvvat, kamchiqim, kammahsul* va sh.k. Bundan tashqari texnika, zoologiya, botanika, tibbiyot kabi sohalar terminologiyasida faol ishlatiladi: *ko'richak, panajoy (harb.), qizilo'ngach, qorajigar, sariqsuy, achchiqtosh, sassiqpopishak, qizilishton* kabilar sifat terminlarini ifodalaydi. Shuningdek, son terminologik sistemalarida ham aksini topadi: uchburchak, mingoyoq, uchhad, oltiqirralik, beshyulduz, Yetti ayiq, o'n ikki burj va sh.k.;

Xulosa qilib aytganda, hozirgi o'zbek terminologiyasi sistemasida fan va texnikaning turfa sohalarida voqelanayotgan qator belgi -terminlar ikki tushunchani ifodalash uchun xizmat qilmoqda. Moziydan o'zbek tili lug'at fondida faol qo'llanib kelayotgan tub (asl) hamda arab va fors-tojik so'zlaridan yasalgan belgi bildiruvchi so'zlar o'zbek terminologiyasida muayyan salmog'ga ega.



References:

1. Mengliyev B., Sayfullayeva R. va boshq. Milliy tilshunoslik mustaqil rivojlanish yo'lida // "Ma'rifat" gazetasi, 2007 yil 21 may; Safarov SH. Pragmalingvistika. –T.:Fan, 2008;
2. Safarov SH. Kognitiv tilshunoslik. –T. Fan, 2007; Toirova G., Safarov SH. Nutqni sotsiopragmatik o'rganish asoslari. –Jizzax:NS, 2006.
3. Ким В.Н., Ким Т.С. Социально-политическая терминология.–Т., . 2009. С.
4. Nurmonov A. Hozirgi O'zbek adabiy tili. –T.: Sharq, 2002. –B. 62-63.
5. Danilenko V.P. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. М.:Наука, 1977. -S.157
6. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. Вопросы теории и методики. М., 1961.– с. 29.
7. Калинин А.В. Лексика русского языка:, 1971. – с. 141.